

Bo'lim boshlig'i:

Karimov Uktam Ulug'bekovich

Qabul vaqti: Har kuni

Telefon: 71 238-65-63

E-mail: u.karimov@tuit.uz

Ta'limning kredit tizimini boshqarish bo'limi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining [2018 yil 24 iyuldagi 569-sonli Qaroriga](#) muvofiq, 2018-2019 o'quv yilidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining kadrlar tayyorlash bo'yicha o'qitishning kredit tizimiga o'tishi munosabati bilan tashkil etilgan.

Ta'limning kredit tizimini boshqarish bo'limining vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- Rivojlangan davlatlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ilg'or tajribalari va tavsiyanomalaridan foydalangan holda, xalqaro ta'lim standartlarini joriy qilish;
- Universitet va uning filiallarini malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash;
- orqali ta'lim sifatini oshirish uchun sifatli o'quv dasturlari va o'quv materiallarini ishlab chiqarishni nazorat qilish;
- Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan talabalar, professor-o'qituvchilar, izlanuvchilarning almashinuv dasturlarini kengaytirish;
- Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va o'quv jarayonlarini tashkil etishning samarali shakllarini o'zlashtirish orqali pedagog kadrlar salohiyatini oshirishga ko'maklashuvchi raqobat muhitini yaratish;
- Talabaga ta'lim dasturini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratish va bilimni baholashning oshkoraligini ta'minlash.

<http://lms.tuit.uz> таълимнинг кредит тизimini назорат қилиш тизими

<http://cms.tuit.uz> масофавий мустақил таълим олиш учун контент тизими

[Ta'limning kredit tizimi to'g'risida qisqacha ma'lumot.](#)